

SAMARQAND VILOYATI IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT MAKTAB
INTERNATI ONA TILI VA ADABIYOT FANI O'QITUVCHISI
XUDAYKULOVA GULOY ESANOVNANING

OCHIQQ DARSII

Mavzu: Zulfiya she'riyat gulshanining bulbuli

SAMARQAND 2016

Mavzu: Zulfiya she'riyat gulshanining bulbuli

Ta'limiy maqsad: Zulfiya ijodi haqida yaqindan tanishish, she'rlaridan yod aytish.

Tarbiyaviy maqsad: Zulfiya she'rlari orqali Vatanga, tabiatga, mustaqillikka va ota – onaga bo'lgan muhabbatni shakllantirish.

Dars johozi: Mavzuga oid ko'rgazmalar, buketlar, albomlar, krossvodlar, kompyuter.

Dars uslubi: Savol – javob, guruhlar bo'yicha musobaqa.

Darsning borishi: Sinf xonasi mavzuga oid ko'rgazmalar bilan bezatilgan.

O'qituvchi: Assalomu-alaykum aziz o'quvchilar, hurmatli o'qituvchilar va ota-onalar barchangizni kirib kelayotgan yasharish va uyg'onish fasli bahorning kirib kelishi bilan tabriklayman. Sizlarga baxt va omad tilagan holda bugungi ochiq darsimizni boshlaymiz.

Har yili bahorning ilk kunida shoira Zulfiyaning Tavallud kunini nishonlaymiz. Mana bugun ham shoiraning 100-yilligini nishonlamoqdamiz.

Biz to'la kulgan xalqmiz, chunki, dunyo e'tirofni qozongan ko'plab ijodkorlarimiz bor. Jahon miqiyosida nazmiy musobaqada o'zbek she'riyati, shubhasiz, eng oldingi saflarda turadi.

Milliy she'riyatimizning dunyoga mashhur qilganlar orasida O'zbekiston xalq shoiri Zulfiyaning o'rni alohida.

Agar biz serquyosh O'zbekistonimizni go'zal bog', chamanzor desak, ulkan so'z san'atkori shoira Zulfiya, ana shu bog'ning, chamanzorning haqiqiy maftuni, she'riyatning haqiqiy kuychi bulbulidir.

Sinf o'quvchilari oldindan 2-guruhga bo'lingan va ular shoiraning she'riy to'plamlaridan nom qo'yishgan. Dars musobaqa tarzida bo'lganligi uchun shartlar asosida olib boriladi. Shartlar o'qituvchi tomonidan baholanib boriladi.

1-shart: har bir guruh a'zolari kompyuterda tayyorlangan slaydlarini namoyish etib

1-guruh - "Quyoshli qalam" Zulfiyaxonimning hayoti bilan

2-guruh - "Shalola" shoiraning ijodi bilan tanishtirish lozim.

2-shartni boshlashdan oldin o'qituvchi tomonidan Zulfiya o'zi aytgan she'rini kompyuter orqali havola etadi.

2-shart: Guruhlar shoiraning she'rlari yoddan ifodali aytib berishadi.

3-shart: Zulfiya ijodiga baho bergan zamondoshlarining dil so'zlari.

Sizning misralaringizni kuychi bulbullaringizni shunday kuylaydiki, ularni Moskvada turib ham eshitish mumkin. Sizning ovozingizni hamisha tetik. U kishiga quvonch bag'ishlaydi, uni guzal hissiyotlar bilan to'la dunyo sari chorlaydi. Natijada hayot to'kislik va aniqlik kasb etadi.

Nikolay Tixinov

Agar Zulfiya Armanistonda tug'ilganda - Silva, Leningradda tug'ilgan - Berggols, Bulg'oriyada tug'ilganda - Bagryana, Yugoslaviyada tug'ilganda ham Desanka Maksimovichdek mashhur shoira bo'la olar edi.

Rasul Hamzatov

Zulfiyava she'riyat. Zulfiya va qushiq - bu so'zlarni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

...Zulfiya, uning ijodi, she'riyati ma'naviy turmushimizning milliy madaniyatimizning bir qismiga aylanib ketgan. Biz shunday deb hisoblaymiz va bu bilan faxrlanamiz.

Mustay Karim

Zulfiya nomi - kalit. U bilan yaxshilik, adolat va baxtga intilgan har qanday yurakni ochish mumkin.

Rimma Kazakova

4-shart: (Kimning xusnixati) O'qituvchi oldindan fan o'qituvchilar tomonidan Zulfiya she'rlarini qog'ozga yozdirib, tayyorlab qo'yadi va ushbu tarqatma materialni har bir guruh o'quvchisi tanlab olib, she'rni ifodali o'qib, qaysi fan o'qituvchisining xusnixati ekanligini topishadi.

5-shart: (Kim oshdi savdosi) O'qituvchi oldindan tayyorlab qo'ygan sovg'alarga (albom, she'riy to'plam kitobchasi, yon daftarcha va h.) o'quvchilar narx berishadi. Narx 1 so'mdan 20 so'mgacha belgilanadi. O'quvchilar tomonidan narx berilganidan so'ng, o'quvchiga aytilgan narxga qarab shuncha savol beriladi. Masalan: Sovg'aga o'quvchilardan biri 20 so'mga belgiladi va shu o'quvchiga 20 ta savol berildi:

1. Zulfiya qachon tug'ilgan? *1915 – yil 1 – martda*
2. Shoiraning birinchi she'riy to'plami nima deb ataladi? *"Hayot varaqalari" 1935-yil*
3. 1950-1953 yillarda qaysi oynomada bo'ish muharrir bo'lib ishlagan? *"Saodat" oynomasida*
4. Shoiraning turmush o'rtog'i kim bo'lgan? *Hamid Olimjon*
5. "O'ylar", "Shalola" she'riy to'plamlari uchun qanday mukofot olgan? *Hamza nomidagi mukofot*
6. 1956-yil Osiyo va Afrika yozuvchilarining 1-konferensiyasi qayerda bo'lib o'tgan? *Dehlida*

7. "O'zbekiston xalq shoiri" degan unvonga qachon sazovar bo'lgan? *50 yoshida(1985-yilda)*
8. "Kirill va Mefodey" qaysi xalqining 1-darajali ordeni? *Bolgariya xalqining*
9. 1975-yil 60 yoshga to'lgani bilan qanday orden bilan taqdirlangan? *Xalqlar do'stligi*
10. Qachon O'zbekiston oliy sovetining deputati bo'lgan? *1962-yilda*
11. Shoira necha yoshida beva qoladi? *29 yoshida*
12. "O'g'lim sira bo'lmaydi urush" she'ri nima haqida? *2-jahon urushi haqida*
13. Hindistonning javoharlar neru mukofati qaysi she'ri uchun berilgan? *Mushoira she'ri*
14. Shoira Zulfiyaning nechta farzandi bor va ularning ismlarini ayting? *2 ta, Hulkar va Omon*
15. Qaysi bilim yurtida o'qigan? *Xotin-qizlar bilim yurtida*
16. Shoiraning "Hayot varaqalari" she'riy to'plami necha yoshda bosilib chiqqan? *18 yoshida*
17. Zulfiya qanday asarlari uchun "Nilufar" mukofati bilan taqdirlangan? *Tinchlik va do'stlikni tarannum etuvchi asarlari, Osiyo va Afrika yozuvchilari xarakatidagi faol ishtiroki uchun.*
18. Zulfiya nafaqat shoira balki-tarjimon, pedagog, jurnalist, davlat arbobi
19. Shoira qaysi yurtlarda bo'lgan? *Hindiston, Shri - Lanka, Misr, Avstriya, Yaponiya.*
20. Shoira nechanchi yil, necha yoshida vafot etadi? *1997-yil 82 yoshida*

6-shart: 8-sinf o'quvchilaridan maktub.

Zulfiyaxonimning shaxsiy hayoti va ijodida "Tarix takrorlanadi" degan atama ishtirok etganmi? Bunga misol keltiring. *Fayziyev Bekzod*

Bilamizki Zulfiyaxonim 1-mart kuni dunyoga keldi. Yana qanday shaxs shu sanada dunyoga kelgan? *Keldiyorova Umida*

7-shart: Krossvordni yechish. Zulfiyaxonimning she'riy to'plamlarining nomini topish.

8-shart: Har bir guruh tomonidan rus, ingliz, nemis va ozarbayjon tillariga o'girilgan she'rlaridan namunalar aytish.

O'qituvchilar tomonidan barcha shartlar baholanib boriladi va musobaqa g'oliblari aniqlanadi.